


O'QUV DASTUR PASPORTI

O'quv dasturi Sog'liqni saqlash vazirining 2023-yil 17-noyabrdagi 291-sonli buyrug'i asosida Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi Olimlar Kengashida 2023-yil 29-noyabrdagi №34 sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

Amal qilish muddati 2028-yil dekabrgacha

Ta'lim muassasasi nomi	Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi				
Kafedra/ bo'lim	Jamoat salomatligi va sog'liqni saqlashni boshqarish				
O'quv dastur nomi	<i>Sog'liqni saqlashni boshqarish va jamoat sog'lig'ini saqlash</i>				
O'qish turi	Ixtisoslashtirish integratsion kursi				
O'quv dastur muallifi/ mualliflari	Asadov D.A., Xakimov V.A., Asadov X.D., Gulyamova D.D.				
Siklning umumiy soati	306 kredit				
Siklda dars beradigan o'qituvchi va trenerlar					
					
Professor, t.f.d. Asadov D.A.	Dotsent, t.f.n. Xakimov V.A. Sikl kuratori	Dotsent, t.f.d. Asadov X.D. – kafedra mudiri	Dotsent, t.f.d. Xamrayev A.K.	Dotsent, t.f.d. Narmuxamedova N.A.	Katta o'qituvchi, t.f.n. Aripov T.Yu.
					
Katta o'qituvchi Sadikxadjayeva D.A.	Katta o'qituvchi Abduraximova S.B.	Katta o'qituvchi, t.f.n. Agzamov A.A.	Assistent Abbasxanova Sh.N. – amaliyot koordinatori	Dildora Gulyamova WIU in Tashkent Xalqaro modul koordinatori	Alisher Ismailov (PhD) University of Westminster, UK
					
Hamid Reza Shahbazkia Professor Aux, Algarve University, Faro, Portugal	Prabna Kiran WIU in Tashkent	Omonjon Ganiev WIU in Tashkent	Anil Kumar, PhD WIU in Tashkent	Hasan Umarov, PhD in Economist WIU in Tashkent	Dr. Mukhammadfoik Bakhadirov Assistant Professor of Management

					School of Business, ADA University
					
Shakhnoza Asadova Lecturer WIU in Tashkent	Shokhruxh Sultanov Associate Lecturer WIU in Tashkent	Rahman Khan Senior Lecturer in Management WIU in Tashkent	Sitora A. Inoyatova Lecturer WIU in Tashkent	Dr. Sukhrob Saliev Public Health lecturer WIU in Tashkent	Olmas Isakov PhD, Lecturer, Module Leader WIU in Tashkent
					
Feruza Yodgorova Lecturer WIU in Tashkent	Otabek Fazilov Lecturer WIU in Tashkent	Davron Abdigaparov Senior Lecturer WIU in Tashkent			
Maqsad		O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlariga muvofiq, ilg'or xalqaro tajribani inobatga olgan xolda Sog'liqni saqlash vazirligining rahbar kadrlar strategik zaxirasiga iqtidorli boshqaruvchi kadrlar tayyorlash, tinglovchilarga sog'liqni saqlashni boshqarish va jamoat sog'lig'ini saqlash asoslari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikmalar berish.			
Siklga taklif qilingan mutaxassislar – kontingent		O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi loyiha boshqaruvi milliy agentligining 2019-yil 25-yanvardagi 34,25-sonli qarori bilan tasdiqlangan Yo'riqnomaga binoan Sog'liqni saqlash vazirligining komissiyasi tomonidan tanlab olingan hamda Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markaziga yuborilgan tinglovchilar. Mazkur kursda sog'liqni saqlash tizimi boshqaruv organlari, davolash-profilaktika muassasalari rahbarlari, o'rinbosarlari, rahbar lavozimga tavsiya etilayotgan mutaxassislar, ta'lim muassasalarining Sog'liqni saqlashni boshqarish va jamoat sog'lig'ini saqlashga oid kafedra, bo'linmalari xodimlari ham ta'lim olishlari mumkin.			
Sikl vazifalari		<u>Tinglovchilarni quyidagilar bilan tanishtirish:</u> -jamoat salomatligi va sog'liqni saqlash iqtisodiyoti, sog'liqni saqlashni boshqarish, tibbiy statistika, dalillarga asoslangan tibbiyot negizlari; -sog'liqni saqlashni boshqarish va jamoat sog'lig'ini saqlash bo'yicha xalqaro tajriba;			

	-boshqaruv (menejment) asoslari, sog'liqni saqlash boshqaruvining yo'nalishlari asoslari; -sog'liqni saqlash tizimining tarkibiy tuzilmasi; faoliyat ko'rsatishining asosiy yo'nalishlari; milliy sog'liqni saqlash tizimining xususiyatlari, moliyalashtirish ko'rinishlari; amaldagi xolati va oldidagi vazifalari; -sog'liqni saqlash tizimi faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan davlat hokimiyati oliy organlarining va Sog'liqni saqlash vazirligining me'yoriy xujjatlari; -sog'liqni saqlashda boshqaruv tizimi, vazifalari, tarkibiy tuzilmasi, amalga oshirish mexanizmlari; -xududiy tibbiyot birlashmalari, jumladan birlamchi tibbiy sanitariya muassasalari faoliyatining asosiy yo'nalishlari; -aholiga tibbiy yordam ko'rsatishning maqsad, vazifalari va bunda umumiy amaliyot shifokorining roli va vazifalari; -biriktirilgan aholi salomatligini saqlash bo'yicha faoliyatni tashkillashtirish, jumladan aholida sog'lom turmush tarzini shakllantirishga qaratilgan faoliyat yo'nalishlari; -sog'liqni saqlash tizimida tashxislash-davolash jarayonini standartlashtirishni klinik ko'llanmalar va protokollarni joriy etish orqali amalga oshirish; -ixtisoslashtirilgan tibbiy yordamni tarkibi va asosiy yo'nalishlari; -sog'liqni saqlash tizimida raqamli sog'liqni saqlashni joriy etish negizi, mazmuni, bosqichlari; -sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirish va buxgalteriya xizmati, davlat-xususiy sherikchilik negizlari, yangi moliyaviy mexanizmlar, tibbiy sug'urta asoslari; -sog'liqni saqlash tizimini raqamlashtirish asoslari bilan. <u>Tingovchilarga quyidagilarni o'qitish:</u> -umumiy boshqaruv asoslari, asosiy faoliyatni boshqarish, axborotni boshqarish, mablag'ni boshqarish, xodimlarni boshqarish, dori vositalari xarakatini boshqarish, faoliyatni rejalashtirishni, -sog'lom axolining salomatligini saqlash tamoyillarini, -tibbiyot xodimlari va tibbiyot muassasalar faoliyatini baholashda statistik ko'rsatkichlardan foydalanishni; -tibbiy yordam muassasalarida ish haqi va buxgalteriya xisobini; -sog'liqni saqlashda boshqaruv modellarini; -sog'liqni saqlashni tubdan isloh qilish konsepsiyasini; -sog'liqni saqlash tizimi uchun kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va uzluksiz kasbiy ta'lim negizlari; -xududiy tibbiyot birlashmalarida skrining va profilaktika tadbirlarini o'tkazishni; -birlamchi tibbiy sanitariya xizmati va ixtisoslashtirilgan xizmatlar xususiyatlari hamda xamkorligi yo'nalishlarini;
--	--

	-sog'liqni saqlashda boshqaruv tizimi, vazifalari, tarkibiy tuzilmasi, amalga oshirish mexanizmlarini; -sog'liqni saqlash iqtisodiyoti, moliyalashtirish asoslari va buxgalteriya xisobini; -tibbiy huquq, mehnat qonunchiligi, korrupsiyaga qarshi kurashni; -sog'liqni saqlashda boshqaruv organlari faoliyatini tashkillashtirishni; -sog'liqni saqlash tizimigda raqamli sog'liqni saqlashni joriy etish negizi, mazmuni, bosqichlarini; -favqulodda xolatlarda tibbiy xizmatni tashkillashtirish asoslarini; -yuqori samarali sog'liqni saqlashni sog'liqni saqlashni boshqarish va jamoat sog'lig'ini saqlash bo'yicha xalqaro tajribani.
Sikl tarkibi	Modul 1. Mamlakat ijtimoiy hayotidagi islohotlar. Modul 2. Jamoat salomatligi. Modul 3. Sog'liqni saqlashni boshqarish. Modul 4. Tibbiy statistika. Modul 5. Sog'liqni saqlash iqtisodiyoti, moliyalashtirilishi, tibbiyot muassasalarini buxgalteriya hisobi. Modul 6. Tibbiy xizmat sifatini boshqarish. Tibbiy xizmatni litsenziyalash. Dalillarga asoslangan tibbiyot. Modul 7. Sog'liqni saqlash tizimidagi aloxida xizmatlar transformatsiyasi. Modul 8. Sog'liqni saqlash xodimlari uchun axborot kommunikatsiya texnologiyalari. Modul 9. Sog'liqni saqlash tizimida qonunchilik, huquqiy xizmat, mehnat munosabatlari. Modul 10. Sog'liqni saqlash tizimida korrupsiyaga qarshi kurash, ijro intizomi, dori va tibbiy vositalar ta'minoti. Modul 11. Sog'liqni saqlashda davlat boshqaruvi va menejment. Modul 12. Sog'liqni saqlashni boshqarish va jamoat sog'lig'ini saqlash sohasidagi xalqaro tajriba. Modul 13. Sog'liqni saqlashni boshqaruv organida amaliyot. Topshiriqlar ijrosi bo'yicha tinglovchilarni baholash. Yakuniy imtihon, baholash.
O'quv bazalari	Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazining "Jamoat salomatligi va sog'liqni saqlashni boshqarish" kafedrası; Sog'liqni saqlash vazirligi; Toshkentdagi xalqaro Vestminster universiteti; Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari; Respublika davolash-profilaktika muassasalari; Xududiy sog'liqni saqlashni boshqaruv organlari hamda ular tasarrufidagi davolash-profilaktika muassasalari;

O'zbekiston sog'liqni saqlash xodimlari kasaba uyushmalari
Respublika Kengashi;
Idoraviy tibbiyot muassasalari;
Nodavlat tibbiyot muassasalari;
Tibbiy asbob-uskuna va farmatsevtika korxonalari






Sog'liqni saqlash vazirining o'rinbosari qabulida



Амалий машғулотлар жараёни



Соғлиқни сақлаш вазирлигида амалий машғулотлар жараёни





Ўқув жараёни



Toshkentdagi xalqaro Vestminster universiteti

